# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*


2026-YIL / IYUN/6-SON, V-QISM





ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G‘afforovna,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko‘nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li,** O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra’no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI ........ 12
I. R. Berdikulova

TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI ........ 16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li
Turobova Hulkar Rustamovna

O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ........ 24
Davletov Ikrom Raximberganovich

VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI ........ 33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ........ 38
Абдуллаева М.Б.

AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI ........ 44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li

RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI ........ 51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH ........ 55
Niyozov Zuxur Davronovich
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО ........ 58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна

SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI ........ 64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi

XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna

DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 77
Karimova Dilafruz Sadriddin qizi

МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ ........ 82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи

AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI ........ 89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI

**Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna**
Andijon davlat texnika instituti katta o'qituvchisi
Email: nilufarbustonova39@gmail.com
ORCID: 0009-0009-9532-7455

**Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi**
Andijon davlat texnika instituti
"Iqtisodiyot" yo'nalishi 2-kurs talabasi
Email risolatxonnematjonova@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada aholi zich joylashgan hududlarda kichik biznesni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari tahlil qilingan. Kichik biznes faoliyatining hududiy rivojlanishga, aholi bandligini ta'minlashga, daromadlarni oshirishga va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning tajribalari o'rganilib, ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholangan. Tadqiqot natijasida aholi zich joylashgan hududlarda kichik biznesni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va takomillashtirish mexanizmlari bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, tadbirkorlik, aholi zich joylashgan hududlar, bandlik, hududiy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, xorijiy tajriba, innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot, infratuzilma.

**Аннотация:** В статье проанализированы социально-экономические факторы развития малого бизнеса в густонаселённых территориях. Освещено влияние деятельности малого бизнеса на региональное развитие, обеспечение занятости населения, рост доходов и ускорение экономического роста. Также изучен опыт развитых и развивающихся стран по поддержке малого бизнеса и оценены возможности его применения в условиях Узбекистана. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения по приоритетным направлениям развития малого бизнеса и механизмам его совершенствования в густонаселённых территориях.

**Ключевые слова:** малый бизнес, предпринимательство, густонаселённые территории, занятость, региональное развитие, социально-экономические факторы, зарубежный опыт, инновации, цифровая экономика, инфраструктура.

**Abstract:** The article analyzes the socio-economic factors influencing the development of small business in densely populated areas. It highlights the impact of small business activities on regional development, employment generation, income growth, and the acceleration of economic growth. The experiences of both developed and developing countries in supporting small businesses are also examined, and the possibilities of applying these practices in the context of Uzbekistan are assessed. Based on the research findings, scientific and practical recommendations have been developed regarding the priority directions and improvement mechanisms for small business development in densely populated areas.

**Keywords:** small business, entrepreneurship, densely populated areas, employment, regional development, socio-economic factors, foreign experience, innovations, digital economy, infrastructure.

## KIRISH

Jahon tajribasidan ma'lumki, kichik biznes bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'nalishini ta'minlashda, bozor samaradorligi va ijtimoiy muammolarni hal etishda mutanosiblikka erishishda asosiy o'rin tutadi. Biroq, kichik biznesning yuksak ijtimoiy ahamiyati ushbu soha korxonalari hududning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy

ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadigan ma'lum hajmdagi mahsulotlarni yaratgandagina o'zini namoyon qila boshlaydi.

Hozirgi vaqtda barcha hududlarda kichik korxonalar faoliyatining eng muhim samarasi ish o'rinlari va budjetga tushumlarning ko'payishi bo'lib, bu butun ijtimoiy muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Kichik biznesning asosiy ijtimoiy samarasini aholining keng qatlamlari uchun o'zlarining tashkiliy, tadbirkorlik va ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek, o'zlarini yollanma ish va daromadlar bilan ta'minlash imkoniyati sifatida aniqlashimiz mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik nazariyasining asoschilaridan biri J. Shumpeter tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholab, innovatsiyalarni joriy etish va yangi bozorlarni shakllantirishda tadbirkorlarning roliga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, iqtisodiy o'sishning asosiy manbai innovatsion faoliyat bo'lib, aynan kichik biznes subyektlari innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etishda yuqori faollik ko'rsatadi.

P. Druker tadbirkorlik va innovatsiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tadqiq etib, kichik biznesning bozor talablariga tez moslasha olish xususiyatini iqtisodiy samaradorlikning muhim omili sifatida baholaydi. Muallifning ta'kidlashicha, tadbirkorlik iqtisodiy resurslardan unumli foydalanish va yangi qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

D. Storey tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznesning aholi bandligini ta'minlashdagi o'rni chuqur tahlil qilingan. Olimning fikricha, kichik korxonalar yangi ish o'rinlarini yaratishda yirik korxonalarga nisbatan yuqori moslashuvchanlikka ega bo'lib, iqtisodiy inqiroz sharoitlarida mehnat bozoridagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kichik biznes aholi daromadlarini oshirish va kambag'allik darajasini qisqartirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Kichik biznesning ijtimoiy ahamiyati, eng avvalo, ish o'rinlarining asosiy qismi aynan shu tarmoqda to'planganligi bilan belgilanadi. Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida keng ko'lamli tarkibiy va texnologik qayta qurish amalga oshirilgan inqiroz yillarida kichik korxonalarning yirik korxonalarni tarkibiy qayta qurish jarayonida bo'shatilgan ishchi kuchini tez o'zlashtirish qobiliyati birinchi o'ringa chiqdi. Kichik biznesning o'ziga xos xususiyati yangi korxonalarning katta qismini aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari — ayollar, maxsus malakaga ega bo'lmagan yoshlar va boshqalar tomonidan tashkil etilishiga yordam beradi.

Yevropa Ittifoqida 80–90-yillar oxirida ayollar boshlang'ich tadbirkorlarning 27 foizini tashkil etdi. Ko'pincha kichik biznes ishsizlikdan xalos bo'lish usuli bo'lib xizmat qiladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yangi korxonalarning deyarli 1/3 qismi inqiroz davrida mehnat bozoridan tashqarida qolgan odamlar tomonidan yaratilgan. Bundan tashqari, kichik biznes subyektlarida to'plangan kooperativ tadbirkorlik tajribasi katta ijtimoiy va jamoat ahamiyatiga ega. Bir qator mamlakatlarda u ta'sirchan kuchga aylandi va ma'lum darajada aholi farovonligining yuqori darajasiga erishishga hamda alohida ijtimoiy muhitni shakllantirishga yordam berdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, kichik va o'rta biznesning ulkan ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati shundaki, ular mamlakat hududlarini rivojlantirishga va joylarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kichik va o'rta korxonalarning faoliyati mahalliy tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan bo'lib, aholi bandligini ta'minlashga, mahalliy budjetlarning kam daromadli qismini to'ldirishga katta hissa qo'shadi. Aynan kichik biznes mahalliy iqtisodiyotning oqilona tuzilmasini shakllantirish va uni muayyan hududning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda moliyalashtirishning asosiy asosiga aylanishi kerak.

Masalan, Angliya tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalarni rivojlantirish hisobiga tushkunlikka tushgan hududlar iqtisodiyotining tiklanishi mintaqaning ichki resurslari hisobiga sodir bo'ladi. Bu tajribani tahlil qilganimizda, mahalliy resurslardan foydalaniladi, ya'ni hududda mavjud xomashyo, ishchi kuchi, hunarmandchilik an'analari yoki bozor imkoniyatlari ishga solinadi. Tez moslasha oladi hamda katta zavod yoki fabrika ochish ko'p vaqt va mablag' talab qilsa, kichik biznesni yo'lga qo'yish tezroq bo'ladi. Bu tezkor natija va bandlikni oshiradi. Kichik korxonalar ishlab chiqargan mahsulot va xizmatlar avvalo mahalliy ehtiyojni qondiradi, bu esa hudud ichida pul aylanmasini kuchaytiradi.

Xitoy tajribasi ham kichik biznes rivojlanishining hududlarni iqtisodiy tiklashdagi ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi, lekin u Angliyadagidan biroz farq qiladi. Xitoyda kichik biznesni rivojlantirish sust rivojlangan hududlarni ichki resurslar hisobiga tiklashning asosiy omili bo'ldi. Bunda davlat siyosati, imtiyozlar va mahalliy resurslarni safarbar etish juda katta rol o'ynagan. Xitoy tajribasida asosan maxsus iqtisodiy zonalar va qishloq korxonalari orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish rivojlantirilgan. Aholi ko'p joylarda kichik biznes bandlikni oshirib, iqtisodiy tengsizlikni kamaytirgan.

Xitoy tajribasiga oʻxshash tomonlari shundan iboratki, Andijon shahrida va Asaka tumanida erkin iqtisodiy zonalar, sanoat zonalari tashkil etilgan. Ular kichik va oʻrta biznesni imtiyozlar orqali qoʻllab-quvvatlaydi. Viloyatda aholining koʻpligi bandlikni taʼminlash uchun kichik ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish korxonalarini kengaytirishga majbur qiladi. Avtomobilsozlik (Asaka, UzAuto), toʻqimachilik, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash kabi yoʻnalishlarda kichik biznes ham tashqi bozorlarga chiqmoqda. Bundan tashqari, innovatsion yondashuv asosida soʻnggi yillarda IT-parklar, raqamli xizmatlar, startap loyihalar paydo boʻlayapti (masalan, Andijon davlat texnika instituti huzurida IT-park filiallari).

Angliya tajribasiga oʻxshash tomonlarni koʻrib chiqadigan boʻlsak, mahalliy resurslarga tayangan kichik biznes Shahrixon, Xonobod, Baliqchi, Paxtaobod tumanlarida meva-sabzavot, hunarmandchilik, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar faoliyatida namoyon boʻlmoqda.

Aholining ehtiyojlari uchun xizmat koʻrsatish (transport, savdo, oziq-ovqat) tarmoqlari tez rivojlanmoqda, bu esa ichki bozorni jonlantiradi.

Bundan koʻrinib turibdiki, Andijon viloyati amalda Xitoy tajribasining asosiy elementlarini (sanoat zonalari, imtiyozlar, eksportga yoʻnaltirilgan kichik biznes) keng qoʻllayapti, lekin Angliya tajribasidan ham ichki resurslarni ishga solish yoʻnalishini ishlatyapti.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida aytilganlarning barchasi bozor iqtisodiyoti va liberal-demokratik rivojlangan mamlakatlarda kichik va oʻrta biznesni rivojlantirishni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash boʻyicha maqsadli siyosat olib borilayotganini yetarlicha tushuntirib beradi. Natijada, hozirgi kunga qadar sanoati rivojlangan mamlakatlarda YAIMning 50–70 foizi kichik biznesdan keladi.

Qoʻshma Shtatlarda kichik va oʻrta biznes 20 milliondan ortiq korxonalar bilan ifodalanadi, bu barcha Amerika firmalarining 99 foizini tashkil qiladi. Bular asosan kichik korxonalar boʻlib, ularning 80 foizida 10 nafardan kam odam ishlaydi. Ulardan atigi 120 mingtasi, yaʼni Amerika sanoatining oʻzagini tashkil etadi, iqtisodiyotning ushbu sektorida band boʻlganlarning 55 foizdan ortigʻi ishlaydi.

Germaniyada kichik va oʻrta firmalarning ulushi 99,8 foizni (60 mln aholi uchun 1,9 mln firma), yalpi milliy mahsulotning 2/3 qismini tashkil qiladi. Italiyada ishchilar soni 100 nafargacha boʻlgan kichik firmalarning ulushi korxonalar umumiy sonining 99 foizdan ortigʻini tashkil etadi, ularda barcha xodimlarning deyarli toʻrtdan uch qismi ishlaydi va ular milliy mahsulotning kamida 70 foizini taʼminlaydi. Bu mamlakatda kichik biznesning oʻziga xos xususiyatlari va roli boshqa sanoat mamlakatlariga nisbatan ayniqsa yaqqol namoyon boʻladi. 57 million aholi istiqomat qiladigan bu yerda 4 millionga yaqin kichik korxonalar (firmalar) — sanoat, savdo, xizmat koʻrsatish va boshqalar mavjud. Boshqacha aytganda, har 15 aholiga 1 ta kompaniya toʻgʻri keladi. Italiya iqtisodiyotining samaradorligi va rivojlanishi qarorlarni qabul qilish jarayonida millionlab odamlarning ishtiroki, ularning ijodiy hissasi va tashabbusiga tobora koʻproq bogʻliq boʻldi. Italiya iqtisodiyotining oʻziga xos xususiyati shundaki, ishlab chiqarish sektorida va ayniqsa, qayta ishlash sanoatida kichik va oʻrta firmalar ustunlik qiladi. Ishlab chiqarish sohasida 765 ming kichik va oʻrta korxona mavjud boʻlib, ular mahsulotning qariyb 70 foizini ishlab chiqaradi.

Ispaniyada kichik va oʻrta korxonalarning keng tizimini yaratish ogʻir inqirozni bartaraf etish va jadal rivojlanish hamda farovonlik oʻsishiga oʻtish imkonini berdi. Kichik va oʻrta korxonalar harakatsiz resurslarni jonlantirdi va bozorni texnik maqsadlar uchun toʻliq zamonaviy tovarlar hamda isteʼmol tovarlari bilan tezda toʻldirdi. Kichik biznesning keng rivojlanishi tufayli Ispaniya ilm-fanga sarflanadigan xarajatlar juda kam boʻlsa-da, texnik jihatdan rivojlangan mamlakatlar guruhiga tezda qoʻshildi.

Umuman olganda, Yevropa Ittifoqining 15 mamlakatida kichik va oʻrta korxonalar YAIMning deyarli 70 foizini ishlab chiqaradi. Taʼkidlash joizki, kichik va mayda korxonalar salmogʻi, ulardagi ishchilar soni ortib bormoqda. Soʻnggi oʻn yil ichida bu raqam 4,5 foizga oshgan.

Shunday qilib, kichik biznesning iqtisodiy tizim faoliyatidagi ulkan roli bilan bir qatorda, uning rivojlanishi koʻplab ijtimoiy muammolarni hal qilish va ijtimoiy taraqqiyotni taʼminlash uchun juda muhimdir. Bu bandlik muammosini hal qilishda eng aniq va yaqqol namoyon boʻladi.

Bandlikning oʻsishiga yordam beradigan kichik biznesning bir qancha oʻziga xos xususiyatlarini shakllantirish mumkin[1]. Birinchidan, u kapital zichligi past boʻlgan yangi ish oʻrinlarini tezda yaratishi mumkin: kichik korxonalarda bir ish oʻrniga kapital xarajatlar odatda yirik korxonalarga qaraganda sezilarli darajada past boʻladi. Ikkinchidan, kichik korxonalar ham kapitalning past texnik tarkibi bilan tavsiflanadi, yaʼni bu yerda ishlatiladigan ishlab chiqarish vositalari birligiga nisbatan yirik korxonalarga qaraganda koʻproq mehnat birliklari toʻgʻri keladi. Yirik korxonalar ishlab chiqarish samaradorligi va unda band boʻlgan ishchilar soni oʻrtasidagi

1 Афанасьев, В. Малое предпринимательство в решении проблемы занятости / В. Афанасьев, Е. Крылова // Российский экономический журнал.- 1 9 9 6 . - № 1 0 . - С . 40-46

ziddiyatni kuchaytiradi. Innovatsiyalarni joriy etish mehnat unumdorligining sezilarli o'sishiga va shuning uchun ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning keskin kamayishiga olib keladi. Rivojlanayotgan ijtimoiy keskinlikni kichik biznes tuzilmalarining yangi ish o'rinlarini yaratish va erkin mehnatni o'zlashtirish qobiliyati bilan bir xil rivojlanishi orqali bartaraf etish mumkin. Uchinchidan, kichik korxonalarning o'ziga xosligi ularda murakkab boshqaruv tuzilmalarining yo'qligida namoyon bo'ladi, bu esa bunday korxonalarni shakllantirish jarayonini osonlashtiradi. To'rtinchidan, kichik biznes faol odamlar uchun jozibador, chunki tashabbuskorlik va ijodiy faoliyat uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Beshinchidan, kichik firmalarda moslashuvchan mehnat sharoitlari va bandlik keng tarqalgan (to'liq bo'lmagan yoki haftalik, bosqichma-bosqich ish jadvallari, yarim kunlik ishchilarni jalb qilish, mehnat shartnomalari va boshqa fuqarolik shartnomalari), bu ham ko'plab ishchilar uchun juda jozibali. Kichik biznesning bu xususiyati aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari (bolali ayollar, yoshlar) uchun daromad olish imkonini beradi va yirik sanoat inqirozi fonida ijtimoiy keskinlikni pasaytirishga yordam beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirishning hal qiluvchi sohasi bo'lib xizmat qilishini belgilaydi. Mamlakatimiz iqtisodiyotini o'z ichiga olgan o'tish davri yoki transformatsion iqtisodiyotlar haqida ham shunday deyish mumkin.

Kichik biznes muhitini shakllantirish boshqariladigan jarayondir. Biroq, bunday jarayonni boshqarish usullari sof ma'muriy yoki yo'riqnoma xarakteriga ega bo'lishi mumkin emas. Bu usullar xo'jalik yurituvchi subyektlarga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq emas, balki bunday subyektlarning paydo bo'lishi va samarali faoliyat ko'rsatishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liq chora-tadbirlarga asoslanishi kerak. Iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy falsafani o'zgartirish, ijtimoiy psixologiyani o'zgartirish zarur, bu esa jamiyatda tadbirkorlikning xalq farovonligini oshirishga olib keladigan iqtisodiy faoliyatning alohida shakli sifatidagi ahamiyatini anglab yetish imkonini beradi.

Kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradigan asosiy omillar (iqtisodiy, psixologik, ijtimoiy-mehnat va ma'muriy-huquqiy) keltirilgan.

Qayd etilgan omillarning har biri kichik biznes subyektlarining faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda katta ahamiyatga ega. Qonunchilik bazasini takomillashtirish, tadbirkorlikni moliyaviy-kredit qo'llab-quvvatlash, soliqqa tortishning maqbul tizimini yaratish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishni oshirish, kichik biznes subyektlari infratuzilmasini rivojlantirish milliy va hatto xalqaro miqyosda kichik biznes subyektlarining daromadli bo'lishiga va ularda muvaffaqiyatli raqobatlasha oladigan o'rinlarni egallashiga imkon beradi. Bu korxonalar nafaqat mahalliy aholiga xizmat qiladi, balki atrofdagi iqtisodiyot tarmoqlariga mahsulot va xizmatlar eksport qiladi. Natijada, bu hududning makroiqtisodiy darajada ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini oshirishga yordam beradi.

Kichik biznesning rivojlanishini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilish zarur, deb hisoblaymiz:

- aholi zich hududlarda kichik biznesni rivojlantirish ko'lamini uning boshqa hududlar va butun respublikadagi rivojlanish ko'lami bilan solishtirish;
- aholi zich hududlardagi kichik korxonalar sonining, shuningdek, tarmoqlar bo'yicha dinamikasini o'rganish;
- kichik korxonalar xodimlarining o'rtacha sonining tarmoqlar bo'yicha dinamikasini o'rganish;
- kichik korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (mahsulot hajmi, chakana savdo va umumiy ovqatlanish aylanmasi, aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmi) dinamikasini tarmoq nuqtayi nazaridan o'rganish;
- tarmoq tahlili asosida kichik korxonalar faoliyatidagi tarkibiy o'zgarishlarni aniqlash;
- kichik korxonalarning hududiy tuzilishini o'rganish.

Kichik biznesning rivojlanish darajasining hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ta'sirini baholash uchun quyidagilarni zarur deb hisoblaymiz: kichik korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlarini tahlil qilish; kichik korxonalarning hududning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlariga qo'shgan hissasini aniqlash; kichik korxonalar faoliyatining takror ishlab chiqarish tomonini ko'rib chiqish; kichik korxonalarning moliyaviy natijalarini tahlil qilish va ularni o'rta hamda yirik korxonalar uchun o'xshash ko'rsatkichlar bilan solishtirish; foydali va zarar ko'rayotgan kichik korxonalar ulushi nisbatini ko'rib chiqish va uni zarar ko'rayotgan hamda daromadli o'rta va yirik korxonalar ulushi bilan solishtirish; kichik korxonalarda mehnat unumdorligini aniqlash va uni dinamikada o'rganish, shuningdek, uni butun miqyosdagi shunga o'xshash ko'rsatkich bilan solishtirish.

Kichik biznes iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, bandlikni oshirish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Ayniqsa, bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan sharoitda kichik biznesning moslashuvchanligi, kam kapital talab etishi va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlari uning rivojlanishini ob'ektiv zaruratga aylantirmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni // URL: https://lex.uz/ru/docs/-5841063
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-sentyabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarini yangicha yondashuvlar asosida qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-176-son Farmoni // URL: https://lex.uz/uz/docs/-7746045
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi. Toshkent, 2025.
4. Abdullayev A.A. Kichik biznes iqtisodiyoti va tadbirkorlik asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 324 b.
5. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Hududiy iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 356 b.
6. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Yo. Menejment va tadbirkorlik. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 287 b.

# YASHIL

**IQTISODIYOT&TARAQQIYOT**

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 6/5**



© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar maʼsul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi maʼlumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz